

"Kimyo girls" respublika olimpiadasining final bosqichi bo'lib o'tdi

// 03 March 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-girls-respublika-olimpiadasining-final-bosqichi-bo-lib>



"O'zkimyosanoat" AJ, D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahri filiali hamda Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish xalqaro "Ziyo Forum" fondi tomonidan an'anaviy "Kimyo girls" respublika olimpiadasining navbatdagi g'olibalari aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga asosan tashkil etilgan ushbu olimpiadada bu yili ishtirok etish uchun 600 nafardan ortiq talaba-qizdan arizalar kelib tushdi.




Olimpiada test, amaliy laboratoriya topshiriqlari va innovatsion loyihalar – uch bosqichda bo‘lib o‘tdi va finalda 10 nafar talaba qiz ishtirok etdi. Ular jamoa bo‘lib, sohaga oid o‘z innovatsion loyihalarini taqdim etishdi.



Loyihalar dolzarbligi, energotejamkorligi va iqtisodiy samaradorligiga ko'ra baholandi. Yakuniy natijalarga ko'ra, hakamlar hay'ati g'oliblarni aniqlab, 1, 2 va 3-o'rinlarni belgiladi.

G'oliblarga diplom, pul mukofoti va esdalik sovg'alari topshirildi.



Bu kabi olimpiadalar talaba-qizlarning bilim va iste'dodlarini namoyish etish, kasbiy rivojlanish va ilm-fanga yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati